

**YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MUZEYLAR
FAOLIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI**

“ALFRAGANUS” UNIVERSITETI KATTA O'QITUVCHISI

ELMURATOVA SHOXISTA ABLAKULOVNA

fender4555@mail.ru

Annatsiya. Ushbu ilmiy maqolani yozishdan maqsad O'zbekistonda muzeylar faoliyatidagi muammolar va ularning yechimi hamda muvaffaqiyatlar borasidagi tendensiyalarning rivojlantirish masalalariga doir O'zbekiston muzeylarini qo'llab quvvatlash soha rivojlanishida so'ngi yillarda amalga oshirilgan amaliy chora tadbirlar va tarixiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar mazkur tadqiqotni asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga milliy qadriyatlarning qimmati, kelgusi avlodlarga yanada boyigan holda yetib borishi, muzeylar o'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarimizning tarixiy an'alariga sadoqat, o'zbek halqining yuksak maqsadlariga ishonch ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Mustaqil O'zbekiston jahondagi eng ilg'or mamlakatlar safidan o'rin topib, barqaror rivojlanishi uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish jarayonida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning samaradorligi, avvalo, milliy tafakkurning o'zgarishi, yuksalishi bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda mazkur vazifalarni bajarilishida muzeylar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola informatsion tahliliy xarakterga ega.

***Kalit so'zlar.** Muzey, uy-muzey, muzey kolleksiyalar, “Bolalar burchagi”, satellit, smart, madaniyat, jamiyat, shaxs*

***Abstract.** The purpose of writing this scientific article is to provide information on the practical measures and historical significance of recent years in the*

development of the field of support for museums of Uzbekistan regarding the issues of problems in the operation of museums in Uzbekistan and their solutions, as well as the development of trends in success. At the same time, the value of national values, reaching future generations in a more enriched form, museums play an important role in educating the young generation in the spirit of loyalty to the historical traditions of our ancestors and confidence in the high goals of the Uzbek people.

Independent Uzbekistan has found a place among the most advanced countries in the world, has a worldview of independence for its sustainable development, is filled with a sense of national pride, free and free-thinking, and at the same time a citizen

makes it his task to bring up a person who deeply feels his responsibility, who has mastered national and universal values to the extent required by his profession and social environment. The effectiveness of large-scale reforms carried out in the process of social renewal and democratization is directly related to the change and rise of national thinking.

Today, museums are gaining special importance in fulfilling these tasks. This article is informative and analytical in nature.

Keywords. *Museum, house-museum, museum collections, "Children's corner", satellite, smart, culture, society, personality*

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston jahondagi eng ilg'or mamlakatlar safidan o'rin topib, barqaror rivojlanishi uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish jarayonida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning samaradorligi, avvalo, milliy tafakkurning o'zgarishi, yuksalishi bilan bevosita bog'liq.

Umuman olganda muzeylarga, ayniqsa mashhur shaxslarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan uy-muzeylariga tashrif buyurgan har bir ziyoratchi o'z ajdodlaridan, ular qoldirgan ilmiy-madaniy meros namunalaridan o'zgacha milliy g'ururni tuyadi. Shuning uchun ham muzeylar orqali tarixiy xotirani shakllantirish, rivojlantirish, hozirgi avlod tafakkurida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga, buyuk ajdodlarimizga nisbatan milliy g'urur tuyg'ularini paydo qilishga alohida e'tibor qaratish vaqti keldi. Chunki, yoshlar kitoblardan nazariy bilimlarni olsa, amaliy ko'rgazmalar, ashyoviy dalillar namoyish etilgan muzeylar bevosita ana shu nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston hukumati tomonidan jamiyat tafakkurida madaniyatimiz tarixiga oid dunyoqarashni yuksaltirishda uy-muzeylari imkoniyatidan kengroq foydalanish borasida sezilarli darajada amaliy natijalarga erishildi. Madaniy yuksalishimizga katta hissa qo'shgan mashhur tarixiy shaxslarning ilmiy-ijodiy merosini keng targ'ib qilish orqali bugungi Yangi O'zbekiston jamiyati tafakkurida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otish yanada kengroq shakllantirish mumkin mumkin. Chunki, muzeylarga, ayniqsa mashhur shaxslarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan uy-muzeylariga tashrif buyurgan har bir ziyoratchi o'z ajdodlaridan, ular qoldirgan ilmiy-madaniy meros namunalaridan o'zgacha milliy g'ururni his qilishi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mustaqil O'zbekiston jahondagi eng ilg'or mamlakatlar safidan o'rin topib, barqaror rivojlanishi uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega bo'lgan, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o'zlashtirgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish jarayonida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning samaradorligi, avvalo, milliy tafakkurning o'zgarishi, yuksalishi bilan bevosita bog'liq.

Demak, madaniy sivilizatsiyamizga ulkan hissa qo'shgan ulug' tarixiy shaxslarning hayot tajribasini, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganib, uni keng targ'ib qilish asnosida bugungi Yangi O'zbekiston jamiyati tafakkurida milliy g'urur, iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishimiz shubhasiz! Bu borada yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan uy-muzeylarining ham o'rni va ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki fuqarolarda, ayniqsa yoshlar ongida madaniyatimiz tarixiga oid dunyoqarashni yuksaltirish uy-muzeylarining asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Zero, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir... Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak" (Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 2019 . –B. 144), deb ta'kidlab o'tgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan aytilgan quyidagi fikr ham ushbu mulohazalarimizning tasdig'idir: "Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni, tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda"(Forscha matndan Alixonto'ra Sog'uniy va Habibulloh Karomatov tarjimasini. Izohlar Bo'riboy Ahmedov va Ashraf Ahmedov. 2011. – B. 5-9.).

Uzoq o'tmish davrlarga borib taqaladigan tarixga boy, qadim madaniyatga ega bo'lgan xalqimiz oldida o'z o'tmishini, kelib chiqishi, ota-bobolari, urf-odatlarini, ma'naviy boyliklarini, yuksak madaniyati, san'atini yanada chuqurroq o'rganish, anglash va bevosita davom ettirishdek vazifa turadi. Birinchi Prezidentimiz "...tarix

– xalq ma'naviyatining asosidir”, deb ta'kidlar ekan, mustaqil vatanning har bir fuqarosi, ayniqsa uning kelajagini belgilab beruvchi yoshlar o'z tarixi va madaniyatini yaxshi bilishlari shartdir.

Mamlakatimizda yosh avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar va insonparvar kishilar sifatida tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlarni o'rganish, to'plash, zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish zarur. Shundagina milliy qadriyatlarning qimmatini oshadi, kelgusi avlodlarga yanada boyigan holda yetib boradi. Muzeylar o'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarimizning tarixiy an'analariga sadoqat, o'zbek halqining yuksak maqsadlariga ishonch ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda mazkur vazifalarni bajarilishida muzeylar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda muzeylarga, ayniqsa mashhur shaxslarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan uy-muzeylariga tashrif buyurgan har bir ziyoratchi o'z ajdodlaridan, ular qoldirgan ilmiy-madaniy meros namunalari bilan o'z g'ururini tuyadi.

Milliy g'urur har xil odam turlicha tushunadi. Lekin kim nima deb tushinishidan qat'iy nazar, agar milliy g'urur o'z millatini boshqa elatlarga taqqoslash asosida shakllantirilgan bo'lsa – bu milliy g'urur emas. Bu milliy muhimlik, bu – milliy manmanlikdir. Siz o'z millatingizdan faxrlanishingizga uni boshqa millatlardan ustun hisoblashingiz sabab bo'lmasligi kerak.

Muzeylar – tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'priklar hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'rni beqiyos. Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar

davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda.

Muzeyning ijtimoiy ahamiyatini aks ettiruvchi tarixdan shakllanib kelgan ijtimoiy-madaniy vazifalarining ko'p qirrali ekanligi va turli nuqtai nazardan o'rganilishi natijasida uning oldida quyidagicha maqsadlar turadi:

- muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hujjatlashtirish, asoslash, ya'ni, jamiyat taraqqiyotining madaniyati yoki tabiatini aks ettiruvchi dalillar bilan tasdiqlash;

- jamiyat a'zolarining bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, ularning madaniy, ma'naviy va ruhiy xordiq chiqarishiga bo'lgan talabini qondirish vazifasi ham shular jumlasiga kiradi. Bu vazifaning muhimligi shundan iboratki, jamiyat a'zolarining muzeyga tashrif buyurishlari ortida ham axborot olish, ham bilim olish, ham tarbiyaviy ahamiyatidan baxramand bo'lish istagi yotadi (Ismailova J., Nishanova K., Muxamedova M. 2015. – B. 18-20).

Mashhur shaxslar – olimlar, adiblar, san'at va madaniyat arbolarining yodgorlik muzeylari o'z navbatida yoshlarga ulkan ruhiyat, kelajakka nisbatan katta motivatsiya beribgina qolmasdan balki, ularga kitob o'qishga, ilm va hunar egallashda ham ma'naviy kuch beradi. Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan yoshlar va aholining keng qatlamlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi" (Mirziyoyev Sh.M. 2017. – B. 47.). Shu bois uy-muzeylari faoliyatini kitobxonlik targ'ibotiga yo'naltirish maqsadga muvofiq ish hisoblanadi. Chunki, yoshlarni kitoblar orqali, davlatimizning boy tarixiy va ma'naviy-madaniy merosi bilan tanishtirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash mumkin.

Xalqaro Muzeylar Kengashining 2007 yilda qabul qilingan Nizomida: "Muzey – bu inson va atrof muhitning moddiy va nomoddiy dalillarini ta'lim va

ma'naviy hordiq chiqarish maqsadlarida to'plash, saqlash, tadqiqot va targ'ibot qiluvchi hamda omma uchun ochiq bo'lgan, jamiyat va uning taraqqiyoti uchun doimiy asosda faoliyat yurituvchi notijorat muassasa" sifatida ta'riflanishida ham muzeylarning ta'lim yo'nalishidagi ahamiyatini birinchi o'ringa qo'yilishi bejiz emas (Qambarova Z., Kasimova Sh. Muzeylarda madaniy-ta'lim yo'nalishining rivojlanish tarixi, "Fan tarixi rivojiga akademik A.R.Muhammadjonovning qo'shgan hissasi" to'plami, Toshkent, 2020 yil 30 oktyabr. – B. 238). Muzey eksponatlaridan ta'lim maqsadida foydalanishda namoyish etilayotgan jamlanmaning yo'nalishini to'g'ri tanlash, ularni extiyotkorlik bilan saqlash, ko'rgazma qilish va ekologik muhitni ham ta'minlash lozimligini unutmaslik kerak (Ismailova J., Nishanova K., Muxamedova M., 2015. – B. 20).

Muzeydagi mashg'ulotlar muvaffaqiyatini G.Froydental quyidagi shart-sharoitlar bilan bog'laydi:

- muzeyga bo'lgan har bir tashrif aniq o'quv maqsadiga ega bo'lishi;
- muzeyga kirishdan oldin unga jiddiy tayyorgarlik ko'rish;
- muzeyga tashrifni bolalarning maktabda mashg'ulotlardan charchagan paytida emas, balki u yerdagi manbalarni idrok etishga tayyor bo'lgan paytda uyushtirish;
- bolalargina emas, kattalarga ham bilish uchun og'ir bo'lgan obzorli sayohatlardan voz kechish;
- ekskursiyada ko'rsatish uchun eksponatlarni bolaning yoshiga ko'ra, qiziqishlari asosida tanlash;
- bolalarning mavzular bo'yicha mustaqil ijodlari (rasmlar, insholar, yaratilgan modellari) muzeyga tashriflarining yakuni bo'lishi lozim (Qambarova Z., Kasimova Sh. 2020 yil 30 oktyabr. – B. 239.).

Muzeydagi ta'lim shakli deyarli sezilmas usullar bilan bajariladi. Chunki, muzeyga tashrif buyurgan har qanday tomoshabin chiroyli yoki notanish bo'lgan eksponatlarni tomosha qilish jarayonida madaniy qadriyatlar bilan yaqinlashadi, bilimlarini kengaytiradi va yangi g'oyalar bilan tanishadi. Bugungi kunda muzey va ta'limning uzviy bog'liqligini oshirishda muzey pedagogikasining ahamiyati juda

yuqori hisoblanadi. Chunki, muzey pedagogikasining asosiy vazifasi yoshlarda madaniyat va san'atga nisbatan bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Afsuski, yurtimizda bu yo'nalishdagi tajribalar va ilmiy tadqiqotlarni yetarli darajada deb bo'lmaydi.

Muzey kommunikatsiyasi orqali predmetlarga emotsional javob berish, bilish uchun hoxish, axborotni qabul qilish, muzey sharoitida predmetlarni qabul qilish va tushunishni rivojlantirish lozim. Bolalarga bizning va ajdodlarimizning o'zaro bog'lovchi turli hildagi aloqalarni his etish va qabul qilishda yordam berish lozim. Shundagina yo'q bo'lib ketgan madaniyat, an'analar va ularning ahamiyati bolalarda alohida qadr-qimmatga ega bo'ladi. Muzey xazinasini ularga bebaho va noyob tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyotidagi zamonaviy davrning murakkabligi, uning ijtimoiy, madaniy hamda iqtisodiy muammolari ko'lamining kengligi va dolzarbligini o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashning optimal yo'llarini izlash, ijtimoiy tarbiyaning samaradorligini oshirish aktualligini shartlab qo'yimoqda. Shu ma'noda, madaniyat o'sib kelayotgan yosh avlodga ma'naviy, madaniy qadriyatlarni saqlash hamda yetkazib berishga yordam berib, insonning ijtimoiy moslashuvi, ijodiy negizlarini rivojlantirishning effektiv omili, shaxsning ijtimoiy faolligini tarbiyalash va salbiy hayotiy tanlovlarni yengib o'tish vositasi bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda madaniyat muassasalari, xususan, ijtimoiy tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lmish muzeylarning roli ahamiyatli darajada oshib bormoqda. Muzeylar aholi madaniyati, zamondoshlarning ijtimoiy moslashuvini shakllantirish, ularning intellektual hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi bilimlar bilan boyitish imkoniyatlariga ega bo'lib, o'ziga xos informatsion muhit yaratmoqda hamda uni o'yg'unlashtirmoqda (Kasimova Sh. 2021 yil, (5) 1-son. –B. 11).

Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir

ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Muzeylar aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida madaniy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini ham olib boradi. Ular ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga yetkazishning eng yetakchi vositalaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan yangi uy-muzeylarini tashkil etish ishlari davom etayotganligi yurtimizda ularning mavq'ei yanada oshayotganligidan dalolat beradi. Yangi uy-muzeylarining tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko'rsatib turgan barcha katta-kichik uy-muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Chunki, kichik yodgorlik uy-muzeylari yoshlarni axloqqa, halolikka, botirlikka, mardlik, Vatanni himoya qilish, ajdodlaridek mohir, sabr- qanoatli, aqlli, adolatli, haqgo'y, mehr-muruvvatli bo'lishga chaqiradi. Shuning uchun ham uy-muzeylari faoliyatini keng yo'lga qo'yish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ilmiy-tadqiqot sohasidagi izlanishlarini moddiy qo'llab-quvvatlash, faoliyatini yanada rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

NATIJALAR

Ma'lumki, muzeylar to'g'risidagi umumiy tushunchani to'la anglash uchun ularning ijtimoiy-madaniy vazifasini ochib berishga ko'maklashishi mumkin bulgan "madaniyat – jamiyat – shaxs" degan yondoshuv tizimi to'g'ri keladi. "Madaniyat" muammosiga oid ushbu tushuncha doirasiga muzeydagi qadriyatlarni hujjatlashtirish, hisobga olish, saqlash va o'rganish kabilar kiradi. "Jamiyat" tushunchasiga bilim berish, tarbiyalash va ziyo tarqatish kiradi. "Shaxs" esa muzey faoliyati orqali ijodiy iktidorini oshirib, xordiq chiqaradi. Muzeylarning ijtimoiy-madaniy vazifasi serkirra bulib, ular muzey ashyolarini xujjatlashtirish, jamgarmalarni saklash va boyitib borish, ilmiy-tadkikot ishlarini amalga oshirish, estetik, gnoseologik(bilish, ta'limot), aksiologik(qadriyat) vazifalari bilan birga umumiy va eng muximi, ta'lim-tarbiya vazifalari sanaladi. Mazkur vazifalar muzey bilan jamiyat hamkorligida ijobiy natijalar beradi (Ismailova J., Nishanova K.,

Muxamedova M. 2015. – B. 20).

Shuning uchun ham muzeylar orqali tarixiy xotirani shakllantirish, rivojlantirish, hozirgi avlod tafakkurida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga, buyuk ajdodlarimizga nisbatan milliy g'urur tuyg'ularini paydo qilishga alohida e'tibor qaratish vaqti keldi. Chunki, yoshlar kitoblardan nazariy bilimlarni olsa, amaliy ko'rgazmalar, ashyoviy dalillar namoyish etilgan muzeylar bevosita ana shu nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Lekin, yurtimizda bu jihat bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjudligini tan olishimiz lozim. Yirik muzeylarimiz bo'ladimi, kichik yodgorlik uy-muzeylari bo'ladimi, ularga tashrif buyuruvchilar soni maqtanarli darajada emas. Shuning uchun ham bugungi kunda muzeylar faoliyatini tashkil etishda va rivojlantirishda AQSH tajribasidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunki, AQSHda muzeylarning andoza olishga arzigulik quyidagi ilg'or jihatlari mavjud:

- AQSHda muzeylar nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham mo'ljallangan. Chunki, u xoh tarix muzeyi, xoh arxitektura muzeyi, xoh to'qimachilik muzeyi bo'ladimi, ularda albatta kichkintoylar uchun "Bolalar burchagi" tashkillashtirilgan. Masalan, Vashingtondagi Qurilish va Arxitektura muzeyining Bolalar zalida turli bino, ko'prik, yo'l va tunnellar qurish uchun o'yinchoq qurilish ashyolari, xonani dizaynlash uchun o'yinchoq uy jihozlari bilan to'ldirilgan bo'lsa, Amerika hindulari tarixi Milliy muzeyining Bolalar zali esa amerika hindulari turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi o'yinchoq maishiy uy anjomlari, mehnat qurollari bilan to'ldirilgan. Bolalar zalining bir burchagida mo'jazgina mutolaa burchagi ham tashkil etilgan. Bu yerda hindular bilan bog'liq minglab ertak kitoblar joy bo'lgan. Amerika tarixi Milliy Muzeyining Bolalar zali esa "O'z qo'limiz bilan yasaymiz" mashg'ulotlari xonasini eslatib, bu yerda bolalar o'z qo'llari bilan turli buyumlar yasashlari mumkin. Havo va koinot Milliy muzeyida esa bolalar nafaqat samolyot, raketa, satellit va boshqa havo mashinalaridan namunalar, qismlar ko'rishlari mumkin, balki turli-tuman katta-kichik samolyotlarga o'tirib, xayolan boshqarishlari, samoga parvoz qilishlari mumkin. "Yosh olimlar laboratoriyasi"da

esa shamol qanday hosil bo'radi, vertolyot va samolyotlar nega uchadi, yerning tortishish kuchi nima, kabi qator savollarga ko'rgazmali tarzda javob oladilar;

- muzeylarda tez-tez sohaga oid turli mavzularda ma'ruzalar, ko'rgazmali namoyishlar, suhbat, amaliy mashg'ulotlar uyushtiriladi. Bolalar uchun esa muntazam ravishda "Ertaklar olami" soati, "O'z qo'limiz bilan yasaymiz" amaliy mashg'ulotlari tashkil etiladi. Masalan, kecha Havo va Koinot Milliy Muzeyida bolalar "Koinotga Parvoz qilgan filcha" ertagini tinglagan bo'lsalar, Tabiiy fanlar Milliy muzeyida esa "Dunyo va men" mashg'ulotida mas'ul xodimlar turli o'rgimchaklar haqida bolajonlarga ko'rgazmali tarzda ma'lumotlar beradilar. Tirik o'rgimchaklarni namoyish etib, uy sharoitida qanday xavfsiz boqish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi;

- muzeylarning virtual faoliyati, ya'ni internet saytlari faoliyati juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sayt orqali muzeyda ayni kunda qanday ko'rgazma bo'lib o'tayotgani, qaysi zalda soat nechada qanday tadbir bo'lib o'tishi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Umuman, AQSHda muzeylar nafaqat eksponatlarni namoyish etishga va noyob ashyolar orqali ma'lumot berishga, tabiat va jamiyat taraqqiyotining biror yo'nalishini aks ettirishga qaratilgan, balki kishilarga, xususan, bolalar va yoshlarga turli o'yinlar, ijodiy mashg'ulot va interaktiv muloqotlar orqali olamni kashf etishga, bilimlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, bizda ham muzeylar moddiy-texnik bazasini yaxshilash, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, tashkiliy faoliyatini rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Yurtimizda ham har bir muzeyda bolalar uchun yuqoridagi kabi "Bolalar burchagi" yaratilishi va monand ravishda jihozlanishi, bolalar uchun muntazam turli qiziqarli ma'rifiy tadbirlar tashkillashtirilishi muzeylarni gavjum maskanlardan birga aylantiradi. Tom ma'noda ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat o'chog'i sifatida xizmat qiladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston muzeylarining tashkil topgan dastlabki davridan bugungi kunga qadar bosib o'tgan yo'lini chuqur tahlil etmasdan, zaruriy xulosalarni chiqarmasdan turib, ularni eskilik qolipidan chiqarib, yangi taraqqiyot yo'liga tushib

olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirish mumkin emas. Ushbu muammolarni O‘zbekistondagi muzeylar misolida tahlil qilish, muzeylarning har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzimda tutgan o‘rnini aniqlash va faoliyatiga tanqidiy baho berish orqali zaruriy xulosalarni olish zamonaviy muzey ishi taraqqiyotini nazariy jihatdan anglashga xizmat qiladi.

Muzeylar qanday tarixiy sharoitda sovet mafkurasining quroliga aylantirildi, kolonial davrdagi saroy kolleksionerlik an‘analariga ko‘ra qurilgan O‘zbekistonning keksa muzeylari yangi – “sovetcha” yo‘nalishga o‘tishi qanday kechdi, nihoyat ular hozirgi zamonaviy sharoitlarga moslashishda qaysi yo‘ldan boryapti? Bu borada hozirgi vaqtda mafkuradan xoli bo‘lgan qanday fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda? Ushbu savollarga javob topish, muammolarni chuqur ilmiy tahlil etish bugungi muzeylarning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari sirasiga kiradi. Chunki, hozirgi paytda davlatning madaniy sohadagi siyosati bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan O‘zbekiston muzeylari amaliy faoliyati ularning nazariy konsepsiyalarga mos kelmaydi. Buning asosiy sababi zamonaviy muzeyshunoslikning fan sifatida haligacha taraqqiy etmaganidadir. Bu esa amaliy muzeyshunoslik tadqiqotlari va ishlanmalari past natijaviyligiga, muzeylar taraqqiyotining asosiy prinsiplarini ishlab chiqishda ilmiy tayanchning yetishmasligiga olib kelmoqda.

Ammo shuni ham to‘g‘ri anglashimiz lozimki, yangi O‘zbekistonning yangi istiqlol yo‘li yosh hisoblanadi. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan muzeylarning jamiyat hayotining ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksaltirishdagi ahamiyati to‘la anglansada, moddiy resurs va tajribaning yetishmasligi natijasida mazkur soha rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo‘ladi. Lekin, oxirgi yillarda davlatimiz tomonidan muzeylarni rivojlantirish borasidagi dadil islohotlari natijasida juda ko‘p amaliy ishlar qilinmoqda.

Xususan, 2021 yil 15 iyun kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida soha ravnaqi bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Mazkur yig‘ilishda mutasaddilarga muzeylar faoliyatini yaxshilash, ko‘rgazmalarini

kengaytirish va turistlar uchun yangi yoʻnalishlar ochish yuzasidan koʻrsatmalar berilishi, bu soha kelajagining barqaror rivojlanishini davlat nazoratida ekanligini bildiradi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, muzeylarni rivojlantirish ishlari faqat davlatning oʻziga bogʻliq jarayon emas. Bu jarayonda ziyolilarning, ayniqsa olimlarning ham oʻrni yuqori hisoblanadi. Ular jamiyat tafakkurida madaniyatimiz tarixiga oid dunyoqarashni yuksaltirishda muzeylarning ahamiyati yuqori ekanligini aholiga, ayniqsa yosh avlodga keng tushuntirmasa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi pasayib ketishi mumkin.

Shuningdek, yoshlarni muzeylardagi eksponatlarni asrashga, tarixiy shaxslar xotirasiga mehr-muhabbat bilan qarashga oʻrgatishimiz, shu bilan birga ilm-fanni, xalq taʼlimi va madaniyatni yanada rivojlantirish uchun muzeylarning oʻrni yuqori ekanligini ularning ongiga singdirib borishi hozirgi kunimizning eng dolzarb vazifalaridan biri boʻlib bormoqda.

Yangi Oʻzbekistonda muzeylar faoliyatining innovatsion usul va vositalar yordamida kuchaytirilishi, ish jarayonlarini rivojlantirishda ilgʻor texnologiyalarning keng qoʻllanishi natijasida muzeylar, ayniqsa uy-muzeylarining xizmat koʻrsatish sifatini yuqori darajaga chiqardi. Jamiyatni maʼnaviy va madaniy tarbiyalashda hamda yoshlarga ruhiy motivatsiya berishda uy-muzeylarining ahamiyati ortib bordi. Mazkur soha yangicha rivojlanish bosqichiga chiqdi. Bugungi kunda koʻplab muzeylarni virtuellashtirish jarayonlari jadallik bilan kechmoqda. Toʻgʻri bu borada ayrim kamchiliklar koʻzga tashlanayotgan boʻlsada, muammolarni kelajakda barataraf etilishining kafolati mavjud.

Hozirda yurtimiz muzeylarida “smart” – texnologiyalarni joriy etish, internet tarmogʻidan foydalangan holda muzeylarning faoliyatiga innovatsion axborot texnologiyalarini keng jalb qilish, eksponatlarning raqamli shakllarini yaratish orqali muzey eksponatlarini koʻrish imkonini beradigan infratuzilmani yaratishga oid chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganligi muzeylar faoliyatining yorqin kelajagini belgilaydi.

Oʻzbekistonda muzeylarga chet el sarmoyalarini keng jalb qilgan holda

xalqaro standartlar negizida elektron axborot majmuini yaratish jarayonlarini yanada jadallashtirish zarurati mavjud. Respublikaning turli yo'nalishdagi muzeylarida saytlar, hisobga olish va kartotekaning yagona andozasi tayyorlash asosida keyinchalik respublika muzey fondining yagona katalogini nashr qilishning imkonini yaratadi. Hozirgi kunda muzeylar uchun muzey materiallarini namoyish etishning yangi usullari tatbiq etilayotganligi soha rivojini belgilashi shubhasiz.

XULOSA

Yangi O'zbekiston hukumati tomonidan jamiyat tafakkurida madaniyatimiz tarixiga oid dunyoqarashni yuksaltirishda uy-muzeylari imkoniyatidan kengroq foydalanish borasida sezilarli darajada amaliy natijalarga erishildi. Madaniy yuksalishimizga katta hissa qo'shgan mashhur tarixiy shaxslarning ilmiy-ijodiy merosini keng targ'ib qilish orqali bugungi Yangi O'zbekiston jamiyati tafakkurida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otish yanada kengroq shakllantirish mumkin mumkin. Chunki, muzeylarga, ayniqsa mashhur shaxslarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan uy-muzeylariga tashrif buyurgan har bir ziyoratchi o'z ajdodlaridan, ular qoldirgan ilmiy-madaniy meros namunalaridan o'zgacha milliy g'ururni his qilishi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Afsuski, yurtimizdagi uy-muzeylariga tashrif buyuruvchilar soni biz kutganchalik emas. Shuning uchun ham bugungi kunda muzeylar faoliyatini tashkil etishda va rivojlantirishda jahonning ilg'or davlatlarining bu boradagi tajribalarini o'rganib borish muhimdir. Shuningdek, ta'lim muassasalari bilan muzeylarning o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish zarurati ham mavjud.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

“Yoshlar” nashriyot uyi, 2019 . 144

Forscha matndan Alixonto'ra Sog'unliy va Habibulloh Karomatov tarjimasini.
Izohlar Bo'riboy Ahmedov va Ashraf Ahmedov 2011. – B. 5-9.

Kasimova Sh 2021 yil, (5) 1-son. 11

Is mailova J., Nishanova K., Muxamedova M. 2015. – B. 20

Qambarova Z., Kasimova Sh. 2020 yil 30 oktyabr. – B. 238